

## MAKTABGACHA TA`LIMDA INNOVATSION TA`LIM TEXNOLOGIYALARI

*Samarqand viloyati Pastdarg`om tumani  
12-DMTT metodisti Usmonova Aziza*

**Annotatsiya.** ushbu maqolamda hozirgi kunda dolzarb bo`lgan maktabgacha ta`lim tizimidagi innovatsion texnologiyalar haqida so`z yuritaman. Menimcha hozirgi kunda har bir sohada zamonaviy innovatsion yondashuv zamon talabiga aylanmoqda. Maqolada mamlakatimizda maktabgacha ta`lim sohasida qo`llanilayotgan innovatsion texnologiyalarining turlari, ularning qo`llanilishi va afzalliklari haqida ma`lumotlar berilgan.

**Kalit so`zlar.** Maktabgacha ta`lim, texnologiya, innovatsion, bola, inkyuziv ta`lim, Montesorri metodikasi, STEAM, media, ota-nalar bilan hamkorlik.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta`lim sohasidagi islohotlar rivojlanishning yangi bosqichiga ko`tarildi. Davlatimiz tomonidan tarbiya va ta`lim jarayonlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yo`lga qo`yishga katta e`tibor qaratilmoqda. Bu innovatsion texnologiyalar bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish ularni mustaqil ravishda qaror qabul qilishga o`rgatish va axloqiy qadriyatlarni singdirishda muhim o`rin tutadi. Innovatsiya-(inglizcha) yangilik kiritish degan manoni ifodalaydi. texnologiya esa yunoncha `texnos`-san`at, mahurat va logos -fan so`zlaridan olingan bo`lib ,innovatsion texnologiya ta`lim tarbiya shakllari, metodlariga yangicha yondashish degan ma`noni bildiradi.

Yangi pedagogik texnologiyalar nima?

Pedagogik texnologiyalar - bu o`qitish va tarbiyalash jarayonlarini samarali tashkil etish uchun ilmiy yondashuvlar va uslublarni qo`llash tizimidir. Maktabgacha ta`limda ular bolalarning yoshiga mos ravishda qo`llaniladi. Mamlakatimizda qo`llanilayotgan yangi texnologiyalar;

**STEAM-texnologiyalari** (Science, Texnology, Engeniering, Art, Mathematiks) yunalishi bolalarning fan va texnologiyaga bo`lgan qiziqishni oshirishga qaratilgan. O`yin shaklida o`tkaziladigan mashg`ulotlar orqali bolalar matematika, tabiiy fanlar va san`atga yaqinlashadi. Masalan qurish konstrukturlarni yordamida enjenerlik ko`nikmalari shakllantiriladi. Bu yondashuv bolalarning tanqidiy fikrlashini, ijodkorlik va muammolarni hal qilish qobilitlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. STEAM texnologiyasi o`yinlar,

Tajribalar, va lotihalar orqali o`rgatiladi .

**STEAM texnologiyasining maktabgacha ta`limdagi o`rni.**

**1.Ijodkorlikni oshirish.Bolalar ranglar**

Shakllar va turli materiallar bilan tajriba qilib san`at va muhandislik elementlarini o`zlashtiradilar. Masalan, qog`ozdan qush yasash yoki loydan, plastilindan turli shakllar yasash ijodiy fikrlashga yordam beradi.

2.Tanqidiy va mantiqiy fikrlash /Bolalar oddiy tajribalar orqali sabab va natijani tushunib yetadilar.Masalan, suv va qum bilan o`ynash orqali suyuqlik va qattiq jismning xususiyatlarini o`rganishi mumkun.

3.Tabiat va texnologiyaga qiziqishni oshirish/STEAM metodikasi bolalarga tabiatni kuzatish, texnologik o`zgarishlarni tushunish va

Muhandislik elementlarini o`zlashtirish imkonini beradi.Masalan oddiy qurilish konstruksiyalarini yaratish yoki magnitlarning ishlash tamoyilini tushuntirish bolalarni texnik fikrlashga o`rgatadi.

4.Matematik bilimlarni mustahkamlash/Raqamlar geometrik shakllar va o`lchov birliklari bilan bog`liq mashg`ulotlar bolalarning matematik bilimlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.Masalan, LEGO konstruktorlari yordamida son va shakllarni o`rganish samarali usul bo`lishi mumkin.

Maktabgacha ta`lim muassasalarida STEAM `asosida quyidagi usullar qo`llaniladi;

O`yinli mashg`ulotlar;Qum va suv bilan tajribalar o`tkazish.

Kuzatuv va eksperimentlar;O`simliklarni ekish ularning o`sish jarayonini kuzatish.

Konstruktiv o`yinlar; Kichik muhandislik loyihamini amalga oshiradilar.

**Ushbu yondashuv bolalarni 21-asrning innovations fikrlovchi mantiqan tahlil qila oladigan va ijodiy fikr yurita oladigan shaxslarga aylantirishga xizmat qiladi.**

**Media ta`lim;**Bugungi kunda bolalarga axborotni visual va enteraktiv usullarda yetkazish juda muhim. Audio video materiallar, multimedia o`yinlari va enteraktiv taxtalardan foydalanish bolalarning mashg`ulotlarni (ma`lumot va materialarni)yaxshiroq o`zlashtirishini ta`minlaydi.Maktabgacha yoshdagি bolalar uchun media vositalar – bu nafaqat o`yin kulguningbir qismi,balki ta`lim olishning samarali usuludir

**Media ta`limda media ta`limning o`rni**

Maktabgacha ta`lim muassasalarida media ta`lim bolalarning mantiqiy fikrlashi,tasavvur dourasini kengayririshi va ijodiy qobiliyatlarni

rivojlantirishga yordam beradi. Bugungi kunda televizor planshet

smartfonva kompyuter kabi vositalar bolalarning hayotiga chuqur kirib kelganligi sababli, ularni to`g`ri foydalanishga o`rgatish muhimdir.

Media ta`limning maktabgacha ta`limdagi asosiy maqsadlari ;

Bolalarning media vositalari bilan tanishishiga yordam berish;

Axborotni tahlil qilishqilish va filtirlay olish qobiliyatlarinini rivojlantirish;

Virtual va real hayot orasidagi farqni tushuntirish ;  
Bolalarda kreativ fikrlash va axborotdan to`g`ri foydalanish ko`nikmalarini shakllantirish.

### Media ta`lim usullari va vositalari

1.Interaktiv darslar-bolalarga qiziqrli animatsiyalar, rasmlar va vedio lavhalar orqali yangi bilim berish.

2.O`yin texnologiyalari- media vositalari yordamida didaktik o`yinlar o`tkazish

3 Rasm va video tahlil -bolalar bilan rasmlar va qisqa vediolarni ko`rib chiqish,ularning ma`nolarini tushuntirish.

4.Jamoaviy ishlar -bolalarni guruhlarga bo`lib ularga turli topshiriqlar berish .

Media ta`limni joriy etishda e`tibor berilishi lozim bo`lgan jihatlar  
Media ta`limdan foydalanishda quyidagi muhim omillarga e`tibor qaratish kerak;

‘ Bolalarning yoshiga mos keladigan materiallardan foydalanish

.Media fositalaridan ortiqcha foydalanishning oldini olish

.Bolalarni faol muloqot qilishga undash

Axborotmi tahlil qilish va undan foydalanish bo`yicha yo`riqnomalar berish.

**Montesorri metodikasi.** Zamonaviy mактабгача та`lim tizimida bolalarni mustaqil, ijodkor va o`ziga ishongan shaxs sifatida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.Shu nuqtai nazardan Montesorri metodikasi butun dunyoda keng qo`llaniladigan samaralu pedagogic yondashuvlardan biri hisoblanadi.ushbu metodika italyan pedagogi Maria Montesorri tomonidan ishlab chiqilgan bo`lib, bolaning tabiiy rivojlanishiga mos keladigan maxsus muhit yaratishga asoslanadi.

1. Montesorri metodikasining asosiy tamoyillari

Mustaqillik Montesorri metodida bolalarga o`z harakatlarini mustaqil ravishda tanlash imkoniyati beriladi.ular o`zlar qiziqqan faoliyat bilan shug`ullanish orqali bilim olishadi.

2. Individual yondashuv

Har bir bolaga o`ziga xos rivojlanish tezligiga ega.Montesorri muhitida bolalar shaxsiy qobiliyatları va ehtiyojlariga mos ravishda o`rganish imkoniyatiga ega bo`ladilar.

3.Maxsus ta`lim muhitini yaratish

Montesorri muhitida barcha o`yinchoqlar va ta`lim materiallari bolalarga mos keladigan holda joylashtiriladi. Bu bolalarga erkin harakat qilish , mustaqil tanlov qilish va o`z bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

4. Sensor rivojlanish

Montesorri metodikasi bolalarning sensor rivojlanishiga katta e`tibor qaratadi.Maxsus ishlab chiqilgan materiallar orqali ular rang, shakl,ovoz va boshqa sezgilarga asoslangan bilimlarni o`zlashtiradilar.

## 5.Katta yoshli bolalar bilan o`zaro muloqot

Montesorri guruuhlarida turli yoshdagi bolalar bilan birlgilikda o`rganadilar. Bu kichik yoshdagi bolalarga kattalaridan o`rganish imkoniyatini, katta bolalarga esa liderlik va g`amxo`rlik fazilatlarini shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Montesorri muhitidagi ta`lim materiallar

Montesorri metodikasida bolalar maxsus ta`lim materiallari bilan shug`ullanadilar. Ushbu materiallar bolalarni har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi;

Sensor materiallar -ranglarni, shakllarni va hajmlarnifarqlashni o`rgatadi. Matematik materiallar -raqamlarni tushunishga va hisoblashni o`rgatadi. Til materialari- o`qish va yozish ko`nikmalarini rivojlantiradi. Hayotiy ko`nikmalar materialari-tugmalarni qadash, poyabzal bog`lash kabi amaliy hayotiy ko`nikmalarni o`rgatadi. Montesorri metodikasi maktabgacha ta`limda innovatsion va samarali yondashuvlardan biri bo`lib, bolalarning tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Br metodikani qo`llash bolalar tarbiyasida katta ijobiy natijalar berishi mumkun.

**Inklyuziv ta`lim** Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida maxsus ehtiyoji bor bo`lgan bolalarni tengdoshlari bilan birlgilikda oqitish va tarbiyalash amaliyoti yo`lga qo`yilmoqda. Bu bolalarning jamiyatga entegratsiya qilish va ularning ijtimoiy qibiliyatlarini rivojlantirishga yordam yordam beradi. Hozirgi kunda inklyuziv ta`lim bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Maktabgacha ta`lim muassasalarida inklyuziv ta`limning ahamiyati;

Maktabgacha ta`lim -bola rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan hisoblanadi, Shu sababli, inklyuziv ta`limni aynan shu bosqichidan joriy qilish bolalarning ;

Ijtimoiylashuviga ko`maklashadi

Ularni tengdoshlari bilan teng sharoitda ta`lim olishini ta`minlaydi/. Ularning psixologik va entellektual rivojlanishiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Inklyuziv ta`limni amalgalashuviga usullari ;

Inklyuziv ta`lim samarali bo`lishi uchun quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim;

1. Individual yondashuv – har bir bolaning ehtiyojlari va imkoniyatlariga qarab o`qitish usullarini moslashtirish.

2. Muassasalarda maxsus sharoitlar yaratish-nogironligi bo`lgan bolalar uchun maxsus o`quv qurollari, texnik vositalar va moslashtirilgan oquv dasturlarini joriy etish.

3. Pedagoglarning malakasini oshirish -inklyuziv ta`lim bo`yicha mutaxassislar tayyorlash va pedagoglarni o`qitish

4. Ota-onalar bilan hamkorlik-bolalarning ta`lim jarayonida ota-onalar faolligini oshirish va ularga psixologik yordam ko`rsatish.

5. Ijtimoiy muhit yaratish-sog`lom bolalar va maxsus ehtiyojlarga ega bolalar o`rtasida hamkorlikni rivojlanтирish.

**Oilalar bilan hamkorlik;** Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarning rivojlanishida oilaning o`rnini kuchytirishga qaratilgan yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, ota-onalar uchun seminarlar va master klasslar tashkil qilinmoqda. Bola tarbiyasi faqat bog`cha va tarbiyachi zimmasidagi emas ma`suliyat emas balki bu jarayonda ota-onalar ham faol ishtirok etishu lozim. SHuning uchun MTM da jarayonini tashkil etishda ota-onalar bilan yaqin hamkorlik qilish zarur;

Ota-onalar bilan hamkorlik shakllari

Yig`ilishlar va seminarlar – Ota-onalarni bolalar ta`limi va tarbiyasi bo`yicha muntazam ravishda xabardor qilish uchun davra suhbatlari, seminarlar va yig`ilishlar tashkil etish muhimdir. Bu orqali ota-onalar farzandining rivojlanishi haqida tushunchaga ega bo`lishadi.

Individul suhbatlar – Har bir bolaning rivojlanish xususiyatlari har xil bo`lgani sababli, ota-onalar bilan alohida suhbatlashish orqali boladagi muammolar va yutuqlar muhokama qilinadi.

Ochik eshiklar kuni – Ota-onalar bog`chadagi ta`lim jarayoni bilan yaqindan tanishishi, tarbiyachilar faoliyatini kuzatishi va o`z fikr-mulohazalarini bildirishlari uchun sharoit yaratish lozim.

Qo`shma tadbirlar va bayramlar – Bolalar ishtirokida turli tadbirlar, milliy bayramlar va sport musobaqalarini o`tkazish ota-onalarning faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Ma`lumotnomalar va tavsiyalar – Tarbiyachilar ota-onalarga bolalarni tarbiyalash, psixologik yondashuvlar va ta`lim usullari bo`yicha tavsiyalar berishi kerak.

Ota-onalar bilan hamkorlikning afzalliklari

Bolalarning rivojlanishiga ijobjiy ta`sir – Ota-onalar farzandlari bilan bog`chadagi o`quv jarayoniga qiziqish bildirsa, bu bolada motivatsiyani oshiradi.

O`zaro ishonchning shakllanishi – Tarbiyachi va ota-onalar o`rtasidagi ishonchli munosabatlar bolaning ta`lim olishida yaxshi natijalar beradi.

Bola tarbiyasida yaxlit yondashuv – Ota-onalar va tarbiyachilar hamkorligi natijasida bolaga bog`cha va uyda bir xil pedagogik yondashuv qo`llaniladi.

Maktabgacha ta`lim muassasalarida ota-onalar bilan samarali hamkorlik qilish bola tarbiyasi va rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hamkorlik doimiy, tizimli va samarali bo`lishi uchun MTM jamoasi va ota-onalar o`zaro muloqotda bo`lishlari lozim.

**Xulosa** qilib aytadigan bo`lsak hozirgi kunda mtmlarda yangi Ped texnologiyalardan foydalanish biz pedagoglarning asosiy vazifamiz.

Zamonaviy pedagogic texnologiyalar quyidagi afzalliklarga ega; bolalarning qiziqishini oshiradi , pedagoglarning kompetentsiyasini oshiradi.O`quv jarayonini yodda qolarli va samarali qiladi; ijodiy va mantiqiy fikrlash ko`nikmalarini rivojlantiradi. Bolalarninig jamoaviy ishlash qobiliyatini oshiradi. Mamlakatimizda maktabgacha ta`lim tizimida yangi innovatsion pedagogic texnologiyalarni amalda qo`llash bolalarning barkamol shaxs sifatida shakllanishida muhim o`rin tutadi. Xozirgi zamonaviy yondashuvlar orqali farzandlarimiz kelajakda ilm-fan, san`at,va texnologiya sohalarida muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega buladi.Shu bois, yangi texnologiyalarning joriy etilishini yanada rivojlantirish biz pedagoglarning asosiy vazifamizdir. Bu ma`suliyatli ishlarimizda hammamizga omad yor bo`lsin!

### **Foydalilanigan adabiyotlar.**

1. Umumiy pedagogika N. Isaqulova O.Musurmonova,  
M.Jumaniyozova,A.Jumayev.Maktabgacha ta`lim pedagogikasi  
N.M.Egamberdiyeva, T.Hasanova,H.K.Fayziyeva.Inklyuziv ta`lim nazariyasi va amaliyoti F.U.Qodirov,D.A.Pulatova, Mariya Montesorri